

A stylized illustration featuring two figures against a dark blue background with white lightning bolts. The figure on the left is a white statue of a man in a lab coat, with Cyrillic letters 'р', 'х', 'и', 'с', 'т' on his chest. The figure on the right is a dark statue of a man in a suit, holding a telescope, with Cyrillic letters 'п', 'о', 'д', 'а' on his chest. Between them are several circular icons: a red one with a face, a blue one with a face, a blue one with a face, a blue one with a face, a blue one with a face, and a blue one with a face.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

O. U. AVLAYEV, SH. R. SAMAROVA, S. R. MIRZAYEVA

PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun darslik

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT – 2023
«FAN ZIYOSI» NASHRIYOTI

- 3890 -

UO'S: 114.17.201

KBK: 44.9.(50'zb)

O.U.Avlayev, Sh.R.Samarova S.R.Mirzayeva «Psixologiya nazariyasi va tarixi» darslik. – Toshkent: «Fan ziyosi» nashriyoti. 2023. 660 bet.

“Psixologiya nazariyasi va tarixi” darsligi inson shaxsidagi psixologik xolalar, xususiyatlar, jarayonlar haqidagi dastlabki bilimlar majmasini berishga qaratilgan. Mazkur darslik - talabalarni amaliyotchi psixologning kasbiy faoliyati va uning talablari, psixologik tarixi va uning shakllanish jarayoni, psixologiya fanining dolzarb masalalari, individ, shaxs, individuallik va shaxs psixik taraqqiyotining muammolari bilan tanishtirish, kasbiy faoliyatga doir masalalarini ongli ravishda tadqiq etish, psixologiyaga doir masalalarning yechimini topishda psixologiyaning imkoniyatlari mohiyatini tushuntirish va ularni qo'llay olishga o'rgatish maqsadida tayyorlandi. Darslik mutaxassislikka kirish, psixologiya tarixi, umumiy psixologiyaga kirish, kognitiv psixologiya, hissiy irodaviy soha psixologiyasi, individual farqlar psixologiyasi kabi boblarni qamrab olgan. Har biri bob hozirda tegishli manbalar asosida aniqlangan. Bu esa talabalarga psixologning kasbiy faoliyati, psixologiya tarixi, psixologiyaning mohiyati, psixika va ong tushunchalari, psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Darslik, 60110100 – pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarini psixolog kasbiy faoliyati, psixologiya fanining tarixi, psixologik tavsifi, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlari haqidagi zamonaviy bilim va malakalarni yanada mustahkamlashga mo'ljallangan

Taqrizchilar:

A.I.Rasulov – ps.f.dok.professor.

N.J.Eshnayev – f.f.n., dotsent.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentyabrda 302-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etildi.

ISBN 978-9943-747-78-4

© «Fan ziyosi» nashriyoti, 2023

KIRISH

Inson psixologiyasini bilish shaxs ta'lim-tarbiyasi hamda kamolga yetishini samarali yo'lga qo'yilishiga olib keladi. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarni inson bilan bog'liq faoliyatlarini nazarda tutadigan bo'lsak ham nazariy va amaliy bilimlarni egallashni taqazo etadi. Ta'kidlash joizki, o'quv fani talabaga shaxs omili bilan bog'liq fundamental bilimlarni egallashni taqazo qiladi. Shuning bilan birga kasbiy faoliyati uchun zarur bo'ladigan nazariy bilimlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

“Psixologiya nazariyasi va tarixi” fani doirasida bo'lajak mutaxassis fan doirasidagi nazariy bilimlarni egallash bilan birga shaxs amaliyotiga doir qarashlarni tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi.

Mazkur darslik - talabalarni amaliyotchi psixologning kasbiy faoliyati va uning talablari, psixologik tarixi va uning shakllanish jarayoni, psixologiya fanining dolzarb masalalari, individ, shaxs, individuallik va shaxs psixik taraqqiyotining muammolari bilan tanishtirish, kasbiy faoliyatga doir masalalarini ongli ravishda tadqiq etish, psixologiyaga doir masalalarning yechimini topishda psixologiyaning imkoniyatlari mohiyatini tushuntirish va ularni qo'llay olishga o'rgatish maqsadida tayyorlandi. Darslik mutaxassislikka kirish (1-bob), psixologiya tarixi (2- bob), umumiy psixologiyaga kirish (3-bob), kognitiv psixologiya (4-bob), hissiy irodaviy soha psixologiyasi (5-bob), individual farqlar psixologiyasi (6-bob) kabi boblarni qamrab olgan. Har biri bob hozirda ma'lum bo'lgan psixolog bilimlarni o'rganish, qo'llash sohalari bo'yicha ma'lumotlar tegishli manbalar asosida aniqlangan. Bu esa talabalarga psixologning kasbiy faoliyati, psixologiya tarixi, psixologiyaning mohiyati, psixika va ong tushunchalari, psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Darslik, 5110900 – pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarini psixolog kasbiy faoliyati, psixologiya fanining tarixi, psixologik tavsifi, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlari haqidagi zamonaviy bilim va malakalarni yanada mustahkamlashga mo'ljallangan.

BIRINCHI BO'LIM: MUTAXASSISLIKA KIRISH.

1. KASBLAR VA PROFESSIONALIZM MUTAXASSISLIKA KIRISH FANINING ASOSIY TUSHUNCHASI SIFATIDA

Reja:

- 1.1. Kasb va professionalizm haqida.
- 1.2. Kasbiy kompetentlik va mutaxassislikka kirish.
- 1.3. Psixolog kasbining shakllanish tarixi va bugungi imkoniyatlari.

Tayanch tushunchalar: professiogramma, kasb tanlash, konsultatsiya, professionallik, empirik tadqiqotlar, interpretatsiya, individ, shaxs.

1.1. Kasb va professionalizm haqida

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog-psixolog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelimmoqda. O'zbekiston Respublikasida yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hayotga tatbiq qilish ko'p jihatdan o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish, o'quvchilar yosh xususiyatlarini bilish, har qaysi yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan pedagogik, psixologik jarayonlar xususiyatlarini yaxshi bilgan mutaxassislarga bog'liq. Yuqorida sanalgan muammolarni hal qilishda qator gumanitar va maxsus fanlar yordam beradi. Pedagogik psixologiya, yosh psixologiyasi, muhandislik (injenertlik) psixologiyasi, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi singari fanlar jumlasidandir.

Ishchining kasb faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday masala uning kasb mahorati, texnikani qanchalik egallaganligi darajasi, kasbini sevishi darajasi bilan bog'liq.

Ilmiy texnika taraqqiyoti (ITT) hozirgi kunda tobora jadallashib borayotgan texnika bilan bog'liq, uni yaratish va ishlatish ko'nikmalarini egallagan shaxsni tayyorlashni kun tartibiga keskin qilib qo'yimogda. Bu muammoni tezroq hal qilish tayyorlanayotgan mutaxassislarning o'z mahoratlarini yoshlarga, o'z o'rinbosarlariga qay darajada bera olishlariga bog'liq.

Shuning uchun bugungi muhandis ham o'z kasb sirlarini, ham shu kasb mahoratini yoshlarga bera olishi lozim. U umumiy psixologiyani, yosh psixologiyasini, pedagogik psixologiyani, kasb-ta'limi va uning psixologiyasini bilishi talab qilinadi.

Bugungi yoshlar u yoki bu faoliyat jarayonida o'zlarida mavjud bo'lgan barcha jismoniy va intellektual imkoniyatlari ko'lamini yaqqol namoyon etishlari juda muhim.

Aql, fikr yuritish tezligi va boshqa individual xususiyatlar kasbiy faoliyat jarayonida namoyon etiladi. Buni aniqlash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish bilan muhandislik psixologiyasi, mehnat psixologiyasi fani shug'ullanadi.

Boshqa har qanday mehnat qurollari singari texnika ham inson imkoniyatlariga maksimal darajada moslashtirilishi kerak. Bu eng avvalo mehnatning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa, keyinroq ishchining salomatligi va nihoyat ishlab chiqarishda texnikani qo'llash hisobiga mehnat samaradorligini o'rnatish masalasi bilan bog'liqdir. Odam va texnika munosabatlari bir-biriga mosligi masalalarini mehnat psixologiyasi, uning tarmog'i hisoblangan muhandislik psixologiyasi fani olganadi.

Kasb-hunar ta'limi kollejlari o'quvchilariga texnikaning konstruktiv xususiyatlarini, muhandislik psixologik talablarini hisobga olishni, eng muhim qo'llanadigan texnika inson imkoniyatlarini qay darajada hisobga olganligini, ya'ni texnikaning gumanizatsiyalashuvini hisobga olishini bilib ishga yondashuvi masalalarini aniq tasavvur qilishi bilan bog'liq. Bu muammo muhandislik psixologiyasida o'rganiladigan markaziy bosh mavzu inson—mashina—tizimi — OMT — (ruscha SCHM — «sistema-chelovek-mashina») hisoblanadi. Inson—mashina—tizim va uning asosiy muammolari kasb ta'limi o'qituvchisi va kasb ta'limi ustasi mahoratining nazariy, pedagogik-psixologik tayyorligining asosini tashkil qiladi.

Muhandislik psixologiyasi mehnat psixologiyasining bir tarmog'i bo'lib, u odam va mashina o'zaro axborot almashuvidagi o'zaro ta'sir o'lkazishning obyektiv qonuniyatlarini, ularning amaliy qo'llanish va

“jamoa-odam-mashina” tizimini loyihalash va ekspluatatsiya qilish muammolarini o‘rganadi.

Kasb tanlashga yo‘llash. Kasb ta’limi psixologiyasining asosiy muammosi — shaxsning kasbga yaroqliligini aniqlash, uni tayyorlash, mehnat faoliyatiga yo‘llash masalalaridir. Bular professiografiyadan boshlanadi.

Professiografiya. Insonga qo‘yiladigan talablar nuqtayi nazaridan kasblar va uning o‘z ichiga olgan ixtisosliklarini umumlashtirib tavsiflashni professiografiya deyiladi.

Professiografiya natijasi professiogramma bo‘lib bir kasb doirasidagi ixtisoslarning insonga, odamlar guruhiga qo‘yishi mumkin bo‘lgan talablar asosida tuzilgan umumlashtirilgan tavsifnomalardir.

Professiogrammalar quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo‘lishi mumkin: kadrlar tayyorligini asoslash, gigiyenik sharoitlarni hisobga olish va uni sog‘lomlashtirish; kasb tanlashni asoslash; kasbiy maslahat va kasbiy tanlovni asoslash; mehnatga baho berish me‘yorlarini, mehnat xavfsizligi saviyasini ko‘tarish va boshqalar.

Mehnatni tadqiq qilish bilan shug‘ullanadigan fanlar (tibbiyot, mehnat fiziologiyasi, mehnat psixologiyasi va boshqalar). Professiografiya o‘z oldiga turlicha vazifalarni qo‘yadi. Mehnat psixologiyasi sohasidagi barcha tadqiqotlar, xoh nazariy, xoh amaliy vazifalarni qo‘ymasin, eng avvalo konkret kasb faoliyatini o‘rganishdan boshlanadi. Yana shuni ham esda tutish kerakki, ilmiy-texnika taraqqiyoti munosabati bilan mehnat faoliyati sharoitlarigina emas, mehnat mazmuni ham o‘zgarib bormoqda. Masalan, teplovoz va parovoz mashinisti kasbi kechagisi va bugungisi bilan bir xil emas. Kasb faoliyati o‘zgarishiga qarab kasb professiogramмага mos keladigan kasb dasturi ham o‘zgarishi kerak. Ayrim kasblar yo‘qolib borsa, yangilari paydo bo‘lib boradi, yoki o‘zgarib boradi. Shuning uchun professiografiya ishlari hech qachon tugamaydi.

Kasb tanlashga yo‘llash va kasb maslahatlarini uyushtirish.

Kasb tanlashga yo‘llash eng avvalo odam imkoniyatlari va u yashayotgan muhitning bir qancha sharoitlarini o‘rganishdan boshlanadi. Bularni umumlashtirib mehnat ekspertizasi deb aytiladi.

Mehnat ekspertizasi — bu odamning konkret kasb bo‘yicha mehnatga yaroqliligini ma’lum mutaxassislar tomonidan aniqlanishidir.

Odamning u yoki bu mehnat turiga yaroqliligi eng avvalo uning yoshiga, tegishli bilim, ko‘nikma va malakasiga, mazkur kasbga qiziqishi va iste’dodiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

Mehnat ekspertizasiga turli mutaxassislar va tashkilotlar jalb qilinadi, jumladan, vrachlar, psixologlar, pedagoglar, injenerlar va boshqa mutaxassislar qabul komissiyalari, xodimlar bo‘limi, tibbiy ekspert komissiyalari (VTEK—vrachebno—trudovaya ekspertnaya komissiya), harbiy vrachlik komissiyalari—VVK, turli sohalaridagi tanlov komissiyalari va boshqalar.

Psixodiagnostika ma’lumotlari asosida prognostik psixologik mehnat ekspertizasi kishining kelgusi mehnat faoliyatini belgilashga yordamlashadi.

Bu talablarni har bir pedagog va ota-onalar bilishi, amal qilishi, ayniqsa bolaning 9-sinfni tugatish va hayot yo‘qlini belgilab olishi davrida juda muhimdir.

Mehnat ekspertizasining navbatdagi turi retrospektiv mehnat ekspertizasi deyiladi (Retrospektiv — o‘tmishga nazar solish ma’nosida). Retrospektiv mehnat ekspertizasi kuzatuvchining o‘tmishi o‘quv va ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish, baholash va uning xatolarini aniqlashga, ayrim ko‘ngilsizlarga sabab bo‘lgan holatlarni (avariya, yaroqsiz mahsulot, jarohat) o‘rganishga xizmat qiladi. Bu o‘quvchi yoki ishchining kelgusi mehnat faoliyatini belgilab olishida katta ahamiyatga ega. Mehnat ekspertizasi bir vaqtning o‘zida kasbga yo‘llash muammolarini hal qilishga ham yordam beradi.

Kasb tanlashga yo‘llash — bu psixologik-pedagogik, tibbiy va davlat tadbirlari majmuvi bo‘lib, hayotga kirib kelayotgan odamga ilmiy asoslangan shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda jamiyat va shaxsiy manfaatlariga mos keladigan faoliyat turini tanlab olishda yordam berishdir. Kishining qobiliyatlariga mos kelmaydigan kasb tanlashi ko‘pincha fojialarga sabab bo‘lib, shaxs uchun moddiy, ma’naviy zarar yetkazishi bilan jamiyatga ham qimmatga tushishi mumkin. Jumladan, o‘lla va jamiyat mablag‘ini sovrinish, kadrlar qo‘nimsizligi, qayta